

# O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI

VOL. 1 /SS: 12 (2024)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE




TOSHKENT DAVLAT  
IQTISODIYOT UNIVERSITETI



TASHKENT STATE  
UNIVERSITY OF ECONOMICS



<b>№</b>	<b>MUNDARIJA</b>	
1.	ЎЗБЕКИСТОН СУФУРТА БОЗОРИДА ВОСИТАЧИЛИК ФАОЛИЯТИНИ <b>ЭКОНОМЕТРИК ТАХЛИЛ ҚИЛИШ ВА ПРОГНОЗЛАШ</b> <b>Матиязова Санобар Ражаббайновна</b>	1
2.	СУФУРТА БОЗОРИДА ИСТЕЙМОЛЧИЛАР ҲУҚУҚЛАРИНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШНИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ <b>Жакбаров Сардор</b>	4
3.	ТАКОФУЛ РИВОЖИНИНГ ТАРИХИЙ ЖИХАТЛАРИ ВА ТАРҚАЛИШ ГЕОГРАФИЯСИ <b>Абдуллаев Равшан Вахидович, Дадабаев Умиджон Абдусамат ўғли</b>	7
4.	ЎЗБЕКИСТОНДА СУФУРТА МАҲСУЛОТИНИ СОТИШ КАНАЛЛАРИНИНГ БУГУНГИ ХОЛАТИ <b>Абдимўминова Соодат Тахиржоновна</b>	10
5.	ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИНИ СУФУРТАЛАШДА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ТАЛАБИ ВА УНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ <b>Нуруллаев Абдулазиз Сирожиддинович</b>	13
6.	O'ZBEKISTONDA SPORT SOHASINI MOLIYALASHTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY JIHATLARI <b>M.N.Mamatov</b>	16
7.	SUVEREN KREDIT REYTINGNING MAMLAKAT MOLIYASIGA TA'SIRI <b>Tog'ayniyazov Shohzodbek Ural o'g'li</b>	19
8.	VENCHUR FONDLARINI TASHKIL ETISH: JARAYON VA STRATEGIYALAR <b>Talapova Nargiza Baxriddinovna</b>	21
9.	ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНИНГ БЮДЖЕТ СИЁСАТИНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИХАТЛАРИ <b>Имомов Ҳамдила Ҳамдамович</b>	24
10.	MILLIY IQTISODIYOTDA MAHALLIY BYUDJETLAR DAROMADLARINI SHAKLLANISHDA HUDUDLAR IQTISODIY VA INVESTITSION SALOHIYATINING NAZARIY ASOSLARI <b>Yusupov Ruslan</b>	27
11.	LOGISTIKA VA TA'MINOT ZANJIRI JARAYONLARINI INTEGRATSİYALASH UCHUN MOLIYAVIY BOSHQARUV STRATEGIYALARI <b>Maxmudov Samariddin Baxriddinovich</b>	31
12.	MDH MINTAQASIDA TRANSPORT SOHASIDAGI HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA EOII TRANSPORT INTEGRATSİYASINING TASHQI OMILLARI VA XAVFLARI <b>Xo'jayev Fazliddin Elmurodovich</b>	35
13.	COMBATTING THE SHADOW ECONOMY AS AN IMPORTANT DIRECTION OF ECONOMIC POLICY FOR AN INCLUSIVE DEMOCRATIC SOCIETY (EXPERIENCE OF CENTRAL ASIAN COUNTRIES AS AN EXPAMPLE) <b>Norbaev Tura, Abduraufov Jaloliddin</b>	37
14.	EVROOSIYO IQTISODIY HAMJAMIYATI BILAN IQTISODIY HAMKORLIK MUNOSABATLARINI TASHKIL ETISH TAMOYILLARI <b>Hamdamova Nilufar Hamdullo qizi</b>	42



## MILLIY IQTISODIYOTDA MAHALLIY BYUDJETLAR DAROMADLARINI SHAKLLANISHDA HUDUDLAR IQTISODIY VA INVESTITSION SALOHIYATININIG NAZARIY ASOSLARI

**Yusupov Ruslan**

"Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti" mustaqil izlanuvchisi

email: [rb.usupov@tsue.uz](mailto:rb.usupov@tsue.uz)

### ARTICLE INFORMATION

Volume: 1

Issue: 12

DOI:[https://doi.org/10.55439/INS/vol1\\_iss12/229](https://doi.org/10.55439/INS/vol1_iss12/229)

### ABSTRACT

Mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirish milliy iqtisodiyotda hududlarning iqtisodiy va investitsiya salohiyatini shakllantirishda o'z dolzarlilikini oshirmoqda. Mahalliy byudjetlar asosiy davlat xizmatlarini, infratuzilmani rivojlantirishni va mintaqaviy o'sishni rag'battantirishga qaratilgan hukumat islohatlarini moliyaviy ta'minotida asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu tadqiqot mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishning hududlarning iqtisodiy va investitsiya salohiyatiga ta'sirini baholashga qaratilgan. Ushbu munosabatlarni o'rganish orqali tadqiqot daromad mexanizmlarini optimallashtirish, hududlar o'tasidagi nomutanosibliklarni bartaraf etish va butun mamlakat bo'ylab muvozanatli iqtisodiy rivojlanishni rag'battantirish bo'yicha tushunchalar berishga intildi.

### KEYWORDS

*Mahalliy byudjet daromadlari, iqtisodiy salohiyat, investitsion amaliyotlar, mintaqaviy rivojlanish, davlat moliyasi, daromadlarni mobilizatsiya qilish, fiskal markazsizlashtirish, byudjet samaradorligi, mintaqaviy iqtisodiy ko'rsatkichlar.*

### Kirish (Введение/Introduction)

Hududlarning iqtisodiy va investitsion salohiyati milliy iqtisodiyot doirasida mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirishga sezilarli ta'sir ko'satadi. Bu munosabatlar mintaqaviy iqtisodiy faoliyat, fiskal markazsizlashtirish va mahalliy moliyaviy mustaqillik kabi omillar bilan shakllanadi. Hududlarning mustaqil ravishda daromad olish qobiliyati ularning moliyaviy mustaqilligi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida toboro'rtib bormoqda.

Mintaqadagi iqtisodiy faoliyat, masalan, xizmat ko'rsatish sohasining o'sishi mahalliy hukumatning soliq qobiliyatiga ijobjiy ta'sir ko'satishi mumkin, qishloq xo'jaligi va ishlab chiqarish kabi boshqa tarmoqlar esa bir xil samaraga ega bo'lmasligi mumkin [1,2,3]. Turli xil iqtisodiy faoliyat turlarida bandlik tarkibi soliq tushumlariga ta'sir qiladi, bunda ayrim tarmoqlar mintaqaviy byudjet daromadlariga ko'proq hissa qo'shadи [4,5,6]. Fiskal markazsizlashtirish hokimiyatarga o'z daromadlar va yordamini boshqarish imkonini beradi, malaka mustaqilligi va xodimlarini ishlab chiqarishni boshqarish [7,8,9].

Mahalliy daromadlari yuqori bo'lgan hududlar ko'proq moliyaviy mustaqillikka ega bo'lib, markaziy hukumat transferlariga bo'lgan ishonchni kamaytiradi [10,11,12]. Hududiy hamjamiyatlarning moliyaviy imkoniyatlari ularning mahalliy xarajatlar ehtiyojlarini qondirish uchun etarli miqdorda byudjet daromadlarini shakllantirish, shu orqali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni qo'llab quvvatlash qobiliyati bilan bog'liq [13,14,15]. Mahalliy hukumatlar ko'pincha hukumatlararo transfertlarga qaramlik va mahalliy daromad manbalarining cheklanganligi sababli moliyaviy mustaqillikka erishishda qiyinchiliklarga duch keladi [16,17,18]. Mahalliy soliq tizimlarini mustahkamlash va fiskal boshqaruvi takomillashtirish munitsipalitetlarning moliyaviy xavfsizligi va barqarorligini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega [19,20,21].

### Adabiyotlar tahvili (Обзор литературы/Literature review).

Mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirishda hududlarning iqtisodiy va investitsiya salohiyating nazariy asoslarini moliyaviy menejment, soliq salohiyati va investitsiya strategiyalarining o'zaro ta'sirini o'z ichiga olgan ko'p qirrali. Bu asoslar barqaror hududlarni rivojlantirish va mahalliy byudjetlar daromadlarini oshirishda muhim

ahamiyatga ega. Ko'plab horilik olimlar tomonidan ushbu sohadailmiy asoslarning nazariy jihatlari o'rganilgan.

Olga N. Soboleva va boshqalarga ko'ra "barqaror rivojlanish uchun mintaqaning moliyaviy va investitsiya salohiyatini samarali boshqarish muhim ahamiyatga ega. Bu ushbu potentsiallarni boshqarish uchun kontseptual asoslarni ishlab chiqishni, ular mintaqaning iqtisodiy barqarorligi va o'sishiga hissa qo'shishini ta'minlaydi" [22].

U Vatamanyuk-Zelinska va boshqalarning fikricha "mahalliy byudjetlarning moliyaviy bazasi mintaqaviy barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan moliyaviy resurslarni samarali boshqarishni talab qiluvchi muhim tarkibiy qism hisoblanadi" [23].

Iryna Lomachynskaninig ta'kidlashicha "hududning soliq salohiyati mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishning muhim elementidir. Bu biznesi rivojlantirish va investitsiyalar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida soliq tuzilmalarini optimallashtirish, soliqa tortish bazasini kengaytirish va soliq ma'muriyatiligidagi takomillashtirishni o'z ichiga oladi" [24].

Anatolii Vdovichen va boshqalarga ko'ra "fiskal markazsizlashtirish mahalliy hokimiyatlarning moliyaviy imkoniyatlarni oshirishda muhim rol o'ynaydi, ularga o'z resurslarini yanada samarali boshqarish va fiskal avtonomiyalarni oshirish imkonini beradi" [25]. G., V., Dvas va boshqalarga ko'ra Hududning investitsion jozibadorligini oshirish davlat boshqaruvi uchun ustuvor vazifa bo'lib, investitsion salohiyatni oshirish va xatarlarni kamaytirish strategiyalarini talab qiladi. Bunga soliqni tartibga solish va davlat-xususiy sheriklik kabi vositalardan foydalanish kiradi [26].

Vatamanyuk-Zelinska, U. Z va boshqalarga ko'ra "mintaqaning iqtisodiy salohiyatidan mahalliy byudjet daromadlarini infratuzilma strategik investitsiyalar va biznes imkoniyatlari, xususan, harbiy amaliyotlar kabi tashqi omillar ta'sir ko'satadigan hududlarda ko'paytirish uchun foydalanish mumkin" [27]. Tetiana Kanev ava boshqalarning fikricha "hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda mahalliy byudjetlar muhim ahamiyatga ega. Ular taqsimlovchi va tartibga solish funksiyalarini bajaradilar, bu esa davlat xizmatlari va

infratuzilmasini qo'llab-quvvatlash uchun etarli moliyaviy resurslarni talab qildi" [28].

#### Tahsil va natijalar (Анализ и результаты. Analysis and results)

Ma'lumki, davlat byudjetiga iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Chunki Rossiyaqib bir qator iqtisodchilarining fikricha, uning moddiy negizini milliy iqtisodiyotda yaratiladigan milliy daromad tashkil qilib, K.S. Syusora milliy va hududiy iqtisodiyotning tarmoq tuzilmasi kesimidagi rivojlanishi davlat byudjeti daromadlari tarkibi va tuzilmasiga asosiy ta'sir etuvchi omil hisoblanadi.

Buni professor G.B. Polyak ham tasdiqlab, siyosiy nuqtayi nazardan davlat byudjetiga davlatning siyosiy hokimiyati uchun iqtisodiyot va ijtimoiy sohaga ta'sir qilish maqsadida jamlanadigan moliyaviy resurslari hisoblanib, ushbu fond daromadlari milliy va hudud iqtisodiyotining rivojlanish kesimida shakllanishi e'tirof etiladi.

Ushbu fikrlarga asoslanib va mantiqning oddiy qoidasiga amal qilgan holda ta'kidlash mumkinki, byudjet tizimi byudjetlari daromadlari davlat va mahalliy hokimiyat organlarining asosiy moliyaviy resurslarini o'zida ifodalab, Strategik kontekstdagi investitsion siyosat natijasidagi tarmoqlarning rivojlanishi ushbu daromadlarning tarkibiy tuzilmasiga ta'sir etadi.

Ma'lumki, soliq bazasining tarmoqlar kesimidagi taqsimlanishi va har bir tarmoqlar kesimidagi selektiv soliq siyosati mexanizmiga asoslangan holda davlat byudjeti daromadlaring shakllanishini quyidagicha turkumlash mumkin:

1. Sanoat tarmog'ida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlari va sanoatda band bo'lgan uy xo'jaliklari tomonidan to'lanadigan soliqlar va yig'imlar.

2. Qishloq xo'jaligi tarmog'ida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlari va tarmoqda band bo'lgan uy xo'jaliklari tomonidan to'lanadigan soliqlar va yig'imlar.

1. Xizmatlar sohasida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlari va xizmatlar sohasida band bo'lgan uy xo'jaliklari tomonidan to'lanadigan soliqlar va yig'imlar.

Demak, har bir hudud iqtisodiyotining rivojlanishini tarmoq xususiyati daromaddan, aylanmadan va mulkiy qiyatmatiklardan olinadigan soliqlarning tarmoqlar kesimidagi tushumiga ta'sir etadi.


Birinchidan, hududlar kesimida tarmoqlarning rivojlanishi bir biridan farq qiladi va assimetrik tafovut mavjud. Masalan, Navoiy viloyatida yirik sanoat korxonalarining mavjudligi ushbu tarmoq korxonalarini tomonidan mahalliy byudjetlarga to'lanadigan soliqlarning yuqori ulushini ta'minlaydi.

Ikkinchidan, ijtimoiy xizmatlarga hududlar kesimida ehtiyojlarning taqsimlanishidagi tafovut mahalliy byudjetlar uchun xarajat majburiyatlari qiyatidagi assimetrik tafovutni keltirib chiqaradi. Masalan, namangan viloyatida ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan yuqori ehtiyoj, mahalliy byudjetlar xarajatlari tarkibidagi ijtimoiy soha xarajatlarning yuqori ko'lamini va pirovard natijada daromadlarni shakllantirishda nisbatan yuqori moliyaviy yukni ta'minlaydi.

Mavjud iqtisodiy salohiyati va undan samarali foydalanish, tarmoqlarni muvozanatlari strategik iqtisodiy o'sish sur'ati avvalo, samarali investitsion siyosatiga bog'liqdir. Chunki mamlakat va hududlar kesimidagi samarali investitsion siyosat texnologik rivojlanish va yuqori qo'shilgan qiyat zanjiriga asoslangan innovatsion rivojlanishning negizimini tashkil qilib, bu o'z navbatida o'rta muddati strategik kontekstda YAIM yoki YAHMning o'sishini ta'minlaydi. Tarmoqlar kesimidagi yalpi qo'shilgan qiyatning barqaror o'sishi soliq bazasining kengayishi hisobiga byudjetga daromadlarni barqaror markazlashtirish uchun asosni yaratib beradi.

$$\sum_{b=1}^B Y_b * t_b \equiv \sum_{b=1}^B R_{b(l)} \cong \sum_{b=1}^B E_{b(l)} \cong \sum_{b=1}^B I(c)_b \quad (1.1)$$

Byudjet tizimi byudjetlarining daromadlari milliy iqtisodiyot, hududlar iqtisodiyoti tarmoq tarkibidagi yaratiladigan yalpi qo'shilgan qiyatga bog'liq. Xususan, xizmatlar sohasidagi yalpi qo'shilgan qiyat ( $Y_b$ ) natijasida shakllanadigan soliq bazasiga nisbatan mavjud soliqlar



**1-rasm. Byudjet tizimi daromadlarini byudjetlarining hududiy iqtisodiyot, investitsion faoliyat bilan o'zaro bog'liqligining mantiqiy tuzilmaviy chizmasi.**

bo'yicha belgilangan soliq stavkalari asosida ( $t_b$ ) byudjet tizimi byudjetlariga daromadlar ( $R_b$ ) sifatida markazlashtiriladi. Bu yerda, byudjet tizimi byudjetlarining daromadlarini shakllanishini hududlar iqtisodiy rivojlanishi investitsion faoliyat orqali qo'llab quvvatlash mantiqiy bog'liqligini ko'rish mumkin.

Shuningdek, byudjet tizimi byudjetlarining daromadlari esa byudjet xarajatlarining (Ebl) to'liq va o'z vaqtida moliyalashtirish funksiyasini bajarib, ushbu xarajatlarni quyidagi 1.5-rasmida ifodalangandek, iqtisodiy mazmuni joriy xarajatlar (Ec) va kapital xarajatlarga (Ei) turkumlash mumkin.

Xususan, joriy xarajatlar asosan iqtisodiy tasnif bo'yicha 1, 2 va 4 guruhi xarajatlarini o'zida mujassamlashtirib, mamlakat milliy iqtisodiyotidagi istemolni davlat tomonidan moliyaviy qo'llab quvvatlash byudjet instrumentlarini o'zida mujassamlashtiradi. Bunda byudjet tashkilotlarining ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, 4-guruhi "Boshqa xarajatlar" vositasida davlat ehtiyojlarini uchun tovarlar va xizmatlarni harid qilish orqali iqtisodiyotidagi istemol xarajatlar uchun moddiy-moliyaviy asos yaratiladi.

Byudjet tizimi byudjetlarining xarajatlarining muhim yo'nalişlaridan biri kapital xarajatlar hisoblanadi. Ushbu xarajatlar markazlashtirilgan investitsiyalarni o'zida mujassamlashtirib, hudud iqtisodiyotini rivojlanish dasturlarini mahalliy byudjetlardan moliyalashtirish manbai hisoblanadi.

Byudjet tizimi byudjetlarining iqtisodiyot va markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari (Ei) qabul qilinadigan davlat va xududiy investitsion dasturlarga muvofiq milliy va xududiy iqtisodiyot tarmoqlari ya'ni xizmatlar sohasi (I(c)s), sanoat (I(c)I), qishloq xo'jaligi (I(c)a) va boshqa tarmoq hamda sohalar I(c)f) kesimidagi asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirish orqali strategik konteksta iqtisodiy o'sishning moddiy-moliyaviy asosini yaratishga xizmat qiladi.

Demak, YAIM (YAHM) mahalliy byudjetlar potensial daromadlarni shakllantirishning moliyaviy mambaiini tashkil qiladi. Shuningdek, mahalliy byudjetlarda shakllantiriladigan davlat moliyaviy resurslari hisobiga amalga oshiriladigan iqtisodiyot va markazlashtirilgan investitsiyalar shaklidagi xarajatlari strategik kontekstda iqtisodiy o'sishni ta'minlab, byudjet daromadlarning iqtisodiy o'sishga ta'sirini multiplikativ samarasini ta'minlaydi.

Umuman, yuqorida fikrlerimizni umumlashtirib ta'kidlash mumkinki, hududlar iqtisodiyoti rivojlanishida mahalliy byudjetlar roliga ko'ra shakllangan daromadlarni hisobiga moliyalashtiriladigan xarajatlarni ikki asosiy turkumga ajratish lozim:

1. Xududlar iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi bilvosita xarajatlar. Xususan, bunday mahalliy byudjetlar daromadlari hisobiga moliyalashtiriladigan xarajatlarga ijtimoiy soha va ahorlini ijtimoiy qo'llab quvvatlash xarajatlarni kiritishimiz mumkin. Ushbu xarajatlar tarkibidagi ijtimoiy sohadagi byudjet muassalari ish haqi xarajatlari asosiy salmoqni tashkil qilib, bunday xarajatlar aholi daromadlarni ortishiga ta'sir etish vositasida hududdagi istemolni rag'batlanirish xususiyatiga ega.

Hududlar iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi bilvosita xarajatlar. Ushbu xarajatlarga iqtisodiyot va markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari yaqqol misol bo'la oladi. Ushbu xarajatlar hudud iqtisodiyoti rivojlanish nisbatlariga to'g'ridan to'g'ri ta'sir qiladi.

#### 1.1-jadval

Hududlar	Aholi jon boshiga Yalpi ichki (Hududiy) mahsulot hajmi <sup>2</sup> , ming so'mda							2023-yilda 2017-yilga nisbatan o'sish, %da
	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	
O'zbekiston Respublikasi	9802.1	12945.7	15863.8	17688.5	21149.2	25151.9	29291.4	298.8
QQR	5932.1	8417.4	10380	11335.4	13264.7	15348.1	16545.8	278.9
Andijon	6612.8	8899.4	10842.1	12036	13454	17179.6	20313.6	307.2
Buxoro	9257.9	11605	14645	16189.2	19546.4	23140.6	26262.9	283.7
Jizzax	7373	9498.5	11743.8	13207.6	16309.9	18873.2	22342.1	303.0
Qashqadaryo	6925.3	8312.3	9924.9	10687	12622	14423.2	16585.1	239.5
Navoiy	15447.7	23240.3	36653.1	49513	57370.6	65855.6	76913.1	497.9
Namangan	5721.7	6899.6	8542.4	9814	11794.3	13684.5	15539.5	271.6
Samarkand	7335.8	8699.1	10100.3	10996.3	13258.2	15124.1	17801.6	242.7
Surxondaryo	5788.9	7313.8	8574	9275.2	10948.8	12392	14395.7	248.7
Sirdaryo	8399.8	10369.1	14157.3	14999.7	17327.5	20516.9	23804.2	283.4
Toshkent	10225.2	13885.9	18751.9	21833.1	28206.4	31952.4	35703.7	349.2
Farg'on'a	5775.7	7537.1	8747.6	9830	12379	14306.8	16367.9	283.4
Xorazm	6705.4	8734.9	10333.9	11338.6	13865.1	16764.2	18674.9	278.5
Toshkent sh.	20151	25532.4	33344	36051.4	43166	51435.4	60648.2	300.97

1.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, 2017-yilda iqtisodiy salohiyati yuqori bo'lgan Toshkent shahrida (20151 mln. so'm), Navoiy (15447,7 mln. so'm), Toshkent (10225,2 mln. so'm) viloyatlarida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha aholi jon boshiga YAHMning ulushini o'rtacha ko'satkichidan (9802,1 mln. so'm) yuqori bo'lgan. 2023-yilga kelib esa xuddi shu manzara, ya'ni Toshkent shahri (60648 mln. so'm), Navoiy (76913,1 mln. so'm), Toshkent (35703 mln. so'm) viloyatlarida

aholi jon boshiga YAHM yuqori nominal qiymati O'zbekiston Respublikasi bo'yicha aholi jon boshiga YAHMning o'rtacha qiymatidan yuqori bo'lgan (o'rtacha 29291,4 mln. so'm) tashkil qilgan.

Tahlil qilinayotgan davr boshi va oxiriga nisbatan o'sish sur'atini ko'radigan bo'lsak, respublika bo'yicha o'rtacha o'sish 298,8 foizni tashkil qilib, o'rta chadan yuqori ko'rsatkich Andijon (307,2 foiz), Jizzax (303,0 foiz), Navoiy (497,9 foiz) viloyatlarida va Toshkent (349,2 foiz) shahrida kuzatilgan. Lekin tahlil qilinayotgan davrda barcha hududlarda aholi jon boshiga daromadlar qariyb 2 barobardan ko'p o'sgan.

Hududlar kesimida qulay investitsion va ishbilarmonlik muhitini yaratish hududlar iqtisodiyoti barqaror rivojlanishining asosiy sharti hisoblanadi.

Shuning uchun iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlari qatoriga qulay investitsiya va ishbilarmonlik muhitini ta'minlovchi qonunchilik bazasini shakllantirish talab qilinib, bu quyidagi chora tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi:

1. Investitsiya va biznes sharoitlarini tubdan yaxshilash hududlar iqtisodiy rivojlanishining bosh omilidir. Investitsion faollikni moliyalashtirish manbalari milliy va hudud iqtisodiyotida yaratiladigan milliy daromad va uning komponenti bo'lgan iqtisodiy agentlarning shaxsiy tasarrufidagi daromadlari hisobiga shakllanadigan xususiy va davlat jamg'armalarining ko'lamiga bog'liq.

2. Qulay ishbilarmon muhit va investitsion faollik soliq yukini sezilarli darajada kamaytirish pirovardidagi samarali fiskal tizim hisobiga ta'minlanadi.

3. Qulay ishbilarmon muhit va izchil iqtisodiy o'sish hisobiga soliq bazasini kengayishi natijasida mahalliy byudjetlar daromad imkoniyatlarning ortishi va ular moliyaviy barqarorligiga erishish;

4. Zamonaviy sharoitlarda hududlar iqtisodiyotda kuzatilayotgan progressiv tarkibiy o'zgarishlarni rag'batlantirish; tabiy monopoliyalarni qayta tizimlashtirish; moliyaviy infratuzilmani rivojlanish va o'rta muddathli moliyaviy barqarorlikka erishish yirik va strategik ahamiyatga molik investitsion faoliytni jondantirish hisobiga ta'minlanadi. Ushbu pirovard makroiqtisodiy maqsadlarga investitsion fkaollik orqali erishish milliy daromadning izchil o'sishini ta'minlaydi va byudjet tizimi byudjetlari daromad imkoniyatlarni oshirishni ta'minlaydi.

#### **Xulosa (Заключение/Conclusion).**

1. Mintaqaviy iqtisodiy salohiyati o'sish mexanizmi sifatida baholash. Hududlarning iqtisodiy salohiyati milliy iqtisodiyotni rivojlanishinda

poydevor bo'lib xizmat qiladi. Hududiy resurslar, sanoat va inson kapitalidan foydalangan holda, mahalliy hokimiyatlar mahsuldarlik va raqobatbardoshlikni oshirishi va shu orqali mahalliy byudjet daromadlariga hissasini oshirishi mumkin.

2. Investitsiyalar mintaqaviy iqtisodiy salohiyatni oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Infratuzilma, texnologiya va innovatsiyalarga davlat va xususiy investitsiyalar iqtisodiy faoliyatni rag'batlantiradi, ish o'rnlari yaratadi va turmush darajasini oshiradi, bu esa mahalliy byudjetlar uchun soliq solinadigan bazaning kengayishiga olib keladi.

3. Mahalliy byudjet daromadlari va fiskal markazsizlashtirishning ahamiyati. Samarali fiskal markazsizlashtirish hududlarga iqtisodiy resurslarini yanada samarali boshqarish va ularidan foydalanan imkoniyatini beradi. Moliaviy avtonomiyaning kuchayishi hududlarni iqtisodiy salohiyatini maksimal darajada oshirishga undaydi, mahalliy soliqlar, yig'implar va davlat-xususiy sheriklik hissalarini kabi daromadlar oqimini oshiradi.

4. Sanoat va texnologik klasterlarning rolining dolzarbligini baholash. Hududlarda sanoat va texnologik klasterlarni tashkil etish iqtisodiy va investitsiya salohiyatini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Bu klasterlar investitsiyalarni jaib qiladi, innovatsiyalarni rag'batlantiradi va mintaqaviy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishga xizmat qiladi va shu orqali mahalliy byudjet daromadlarining barqaror bo'lishiga imkon beradi.

5. Institutsional sifatning ta'sirini baholash. Hududlarning iqtisodiy va investitsiya salohiyatiga boshqaruv sifati, tartibga solish muhitini va korruptsiyaga qarshi choralar kabi institutsional omillar bevosita ta'sir qiladi. Institutsional asoslarni mustahkamlash investorlarning ishonchini oshiradi va resurslardan samarali foydalaniшni ta'minlaydi.

6. Daromadlarni shakllantirishda barqarorlikni ta'minlashning ahamiyati. Mintaqaviy iqtisodiyotlarda barqaror rivojlanish amaliyotini rag'batlantirish daromad oqimlarining uzoq muddatli barqarorligini ta'minlaydi. Yashil texnologiyalar, qayta tiklanadigan energiya va barqaror qishloq xo'jaligi sohasidagi tashabbuslar nafaqat investitsiyalarni jaib qiladi, balki jahon iqtisodiy tendensiylariga ham mos keladi.

#### **References:**

1. John, D., Wong. (2004). The fiscal impact of economic growth and development on local government revenue capacity. *Journal of Public Budgeting, Accounting & Financial Management*, 16(3):413-423. doi: 10.1108/JPBAFM-16-03-2004-B006
2. Maxmudov, S. (2023). LOGISTIK TA'MINOT ZANJIRINI MOLIYALSHTIRISHDA FAKTORING VA RIVERSIV FAKTORING AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH. Страховой рынок Узбекистана, 1(4), 31-34.
3. Джалилов, Ф., & Махмудов, С. (2022). МАКРОИКТИСОДИЙ ЖАРАЁНЛАРДА ЭКСПОРТНИ БАХОЛАШДА ИМПОРТ АМАЛИЙЁТЛАРИ ВА ЛОГИСТИКА ХИЗМАТЛАРИНИНГ ТАЪСИРИ. *Economics and Innovative Technologies*, 10(6), 191-202.
4. M., Yu., Malkina. (2018). The determinants of budget revenues of Russian regions. 4(3):95-104. doi: 10.15826/RECON.2018.4.3.014
5. Maxmudov, S. (2024). О 'ZBEKISTONDA EKSPORT HAJMIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI ARDL MODELI ASOSIDA EKONOMETRIK TAHILININI BAHOLASH. Страховой рынок Узбекистана, 1(6), 11-15.
6. Махмудов, С. Б. (2020). Инвестиция фоалиятини молиялаштиришнинг ноанъанавий усууларини такомиллашириш.«. Xalqaro molija va xisob» ilmий журнал, 5.
7. Iryna, Tsymbaliuk. (2018). Financial decentralization and its impact on local budget income formation: international experience. *International Journal of New Economics and Social Sciences*, 8(2):161-172. doi: 10.5604/01.3001.0012.9934
8. Purnama, Sari., Isep, Saepul, Muzaki., Nurdiana, Mulyatin., Eva, Faridah., Benny, Prawiranegara. (2019). Local own revenue, decentralization and local financial independent. 19(3):250-259. doi: 10.25124/JMI.V19I3.2413
9. Kurbonov, K., Makhmudov, S., Mamadiyorov, Z., Khamdamov, S. J., Karlibaeva, R., Samadov, A., & Djalilov, F. (2023, December). The Impact of Digital Technologies on Economic Growth in the Example of Central Asian and European Countries. In Proceedings of the 7th International Conference on Future Networks and Distributed Systems (pp. 403-409).
10. De Mello Jr, L. R. (2000). Fiscal decentralization and intergovernmental fiscal relations: a cross-country analysis. *World development*, 28(2), 365-380.
11. Stein, E. (1999). Fiscal decentralization and government size in Latin America. *Journal of applied Economics*, 2(2), 357-391.
12. Bakhriddinovich, M. S. (2024). Alternative Methods of Financing Corporate Structures in the Logistics Sector. *EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY*, 4(5), 196-202.
13. Mykola, Pasichnyi., Ruslan, O., Obuhov. (2024). Financial Capacity of Territorial Communities in the Context of Ensuring the Socioeconomic Development. *Business Inform*, 4(555):221-229. doi: 10.32983/2222-4459-2024-4-221-229
14. Махмудов, С. (2023). ИКТИСОДИЙ ТИЗИМДА ЛОГИСТИКА ИНФРАТУЗИЛМАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ. Nashrlar, 88-90.
15. Solihev, A. E., & Makhmudov, S. (2024). Assessing the Impact of E-Commerce Growth on Logistics Financing Needs. *American Journal of Modern World Sciences*, 1(1), 111-123.
16. N., V., Roznina. (2022). Assessment Of Budget And Tax Security Of Municipalities. *European Proceedings of Social and Behavioural Sciences*, doi: 10.15405/epsbs.2022.02.89
17. Bakhriddinovich, M. S. (2024). The Influence of the Logistics Industry on Sustainable Economic Growth in the Case of Uzbekistan. *EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY*, 4(4), 231-237.

- 
18. Maxmudov, S. (2023). LOGISTIKA KORXONALARIDA AYLANMA AKTIVLARNI SAMARALI BOSHQARISH ORQALI MOLIYAVIY EKSPLUATATSION EHTIYOJLARNI OPTIMALLASHTIRISH YO 'LLARI. Iqtisodiyot va ta'lim, 24(4), 123-130.
19. O., M., Hrytsenko. (2024). The role of local taxes in the formation of revenues of local budgets. Вісник Хмельницького національного університету, 328(2):324-329. doi: 10.31891/2307-5740-2024-328-56
20. Kasimov, A., Tukhtabaev, J., Bondarskaya, O., Bondarskaya, T., Ochilov, A., Mamatov, M., ... & Usmanov, C. (2023, December). Organizational and Economic Modeling of the System of Interregional Industrial Cooperation as a Control Object. In Proceedings of the 7th International Conference on Future Networks and Distributed Systems (pp. 333-343).
21. Gaipov, J., Fayzieva, M., Makhammadov, S., Urinov, B., & Xodjayeva, J. (2023, December). The Influencing Factors of High-Technology Industries in the Global Market. In Proceedings of the 7th International Conference on Future Networks and Distributed Systems (pp. 58-64).
22. Olga, N., Soboleva, Polina, V., Tokareva. (2023). Conceptual foundations for managing the financial and investment potential of the region in the context of sustainable development. Вестник Тверского государственного университета, 84-92. doi: 10.26456/2219-1453/2023.1.084-092
23. Vatamanyuk-Zelinska, U., & Matsei, K. (2023). FINANCIAL AND ECONOMIC BASE OF LOCAL BUDGETS AS A KEY TO SUSTAINABLE REGIONAL DEVELOPMENT. INNOVATIVE ECONOMY, (1), 71-78.
24. Kungratov Ilmurod Kuzibay ugli, & Abdumitalibova Rayhana. (2024). SECURING TRAVEL EXPERIENCES: THE IMPACT OF TRANSLATION ON TOURISM INSURANCE ACCESSIBILITY. Страховой рынок Узбекистана, 1(11), 36–38.
25. Iryna, Lomachynska. (2022). Tax potential of investment development in the system of social and economic security of the region in conditions of decentralization. Naukovij visnik Polissâ, 100-113. doi: 10.25140/2410-9576-2022-2(25)-100-113
26. Anatolii, Vdovichen., Olga, G., Vdovichena., Julia, Tabenska. (2023). Formation of Local Budgets Revenues Under Fiscal Decentralization. Business Inform, 5(544):187-195. doi: 10.32983/2222-4459-2023-5-187-195
27. G., V., Dvas., Elena, G., Tsyplakova., Marcel, V., Sargsyan. (2023). Investment Potential of the Region and Methods of Managing Its Formation and Development. Теория и практика общественного развития, doi: 10.24158/tipor.2023.6.14
28. Ватаманюк-Зелінська, У. З., & Матей, К. П. (2023). Фінансово-економічна база місцевих бюджетів як запорука стабільного регіонального розвитку. Інноваційна економіка, (1-2023), 71-78.
29. Tetiana, Kaneva., Maksym, Karpenko. (2023). The Local Budgets' Revenues as an Instrument for Ensuring the Socioeconomic Development of Territories. The Problems of Economy, 1(55):185-191. doi: 10.32983/2222-0712-2023-1-185-191..